

**AYOLLAR VA BOLALAR HUQUQLARINING HIMOYASINI KUCHAYTIRISH HAMDA
ULARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIK HOLATLARINING OLDINI OLISH
BORASIDAGI ISLOHOTLAR**

Adilova Marjangul Elmuratovna,
Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi
Gulimbetova Hurliman Yusupovna,
Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi
hurlimangulimbetova.a@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilishga oid zamonaviy qonunchilik islohotlari hamda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Gender tengligi, zo‘ravonlikka qarshi kurash, himoya orderi tizimi va jabrlanuvchilarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish masalalari statistik tahlillar va yangi huquqiy normalar asosida yoritilgan.
Kalit so‘zlar: gender tengligi, bolalar himoyasi, himoya orderi, huquqiy islohotlar, ijtimoiy himoya.

**РЕФОРМЫ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА УСИЛЕНИЕ ЗАЩИТЫ ПРАВ ЖЕНЩИН И
ДЕТЕЙ И ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ ПРЕСЛЕДОВАНИЙ И НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ
НИХ**

Адилова Маржангул Элмуратовна,
преподаватель Каракалпакского государственного университета
Гулимбетова Хурлиман Юсуповна,
студентка Каракалпакского государственного университета
hurlimangulimbetova.a@gmail.com

Аннотация. В статье анализируются современные законодательные реформы и приоритетные направления государственной политики Узбекистана в сфере защиты прав женщин и детей. На основе статистических данных и новых правовых норм рассматриваются вопросы гендерного равенства, борьбы с насилием, системы охранных ордеров и оказания социально-правовой помощи потерпевшим.
Ключевые слова: гендерная политика, защита детей, охранный ордер, правовые реформы, социальная защита.

**REFORMS TO STRENGTHEN THE PROTECTION OF WOMEN'S AND CHILDREN'S
RIGHTS AND PREVENT CASES OF HARASSMENT AND VIOLENCE AGAINST THEM**

Adilova Marjangul Elmuratovna,
Lecturer at Karakalpak State University
Gulimbetova Hurliman Yusupovna,
student of Karakalpak State University
hurlimangulimbetova.a@gmail.com

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-4

Abstract. The article analyzes modern legal reforms and priority areas of state policy regarding the protection of women's and children's rights in Uzbekistan. It examines gender equality, anti-violence measures, the protection order system, and socio-legal assistance for victims based on statistical analysis and new legal frameworks.

Keywords: gender equality, child protection, protection order, legal reforms, social protection.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquq va manfaatlarini ta'minlashga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor berilmoqda. Bunda ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish, ularni har qanday tazyiq va zo'ravonlikdan asrash alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir maxsus choralar ko'rilmogda. Shu sababli, davlat xotin-qizlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini amalga oshirishda teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanishini kafolatlab kelmoqda.

O'z navbatida, Prezidentimizning 2026-yil 3-martda qabul qilingan "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi farmoni bu boradagi sa'y-harakatlar yangi bosqichga kirganidan dalolat beradi. Mazkur farmon nafaqat huquqiy normalarni takomillashtirish, balki insonni e'zozlash, oila institutini mustahkamlash hamda ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlikka mutlaqo murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgani bilan yanada ahamiyat kasb etti. Globallashuv va axborot makoni kengayib borayotgan bugungi sharoitda turli ijtimoiy muammolarning yuzaga kelayotgani ushbu hujjatda belgilangan vazifalarning naqadar dolzarb ekanini anglatadi. Farmonda balog'at yoshiga yetmagan shaxslar bilan nikoh munosabatlariga kirishish holatlarining oldini olish, bu borada ota-onalar mas'uliyatini oshirish, yoshlarni oila qurishga ongli va mas'uliyatli yondashishga da'vat etish va uning amaldagi ro'yobini ta'minlash alohida belgilab qo'yilgan. Binobarin, erta nikoh yoshlarning ta'lim olishi, kasb egallashi va mustaqil hayot qurishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida qaraladi. Prezident Farmonida qonun ustuvorligini ta'minlash va jazo muqarrarligini kuchaytirishga qaratilgan normalarni joriy etish masalasi kun tartibiga qo'yilgani bu boradagi qonunbuzarliklarni profilaktik jihatdan jilovlashning yana bir muhim omili bo'ldi. Bosh prokuratura, Oliy sud, Adliya vazirligi hamda Ichki ishlar vazirliklari, Ijtimoiy himoya milliy agentligining qonunchilikka o'zgartirish kiritish orqali qator yangi tartiblarni joriy etish haqidagi takliflari ma'qullangani tufayli bu borada amaliy ishlar olib borilmoqda. Ushbu takliflarga binoan, Jinoyat kodeksining jinsiy erkinlikka daxldor moddalari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov harakatlari prokuratura organlari zimmasiga yuklatilgani ayollar huquqini ta'minlashning yanada ishonchli va ta'sirchan kafolatidir. Bu chora ushbu toifadagi jinoyatlarni tergov qilishda yagona yondashuvni ta'minlaydi, natijada protsessual kafolatlarni kuchaytirish va adolatli qarorlar qabul qilinishiga asos bo'ladi.

Shuningdek, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etilgan shilqimlik holatlari bo'yicha ma'muriy ishlar faqat prokuror tomonidan jinoyat alomatlari mavjud emasligi to'g'risida qaror qabul qilinganidan keyingina sudga yuborilishi tartibi joriy etilmoqda. Bu esa, har bir holatni puxta huquqiy baholash va asossiz ravishda yengil tarzda malakalashning oldini olish garovidir. Farmonda,

shuningdek, jazo ijrosi tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim takliflar ham ilgari surildi. Xususan, voyaga yetmaganlarga nisbatan og'ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni manzil-koloniyalarga o'tkazilmaydigan mahkumlar toifasiga kiritish, ularga nisbatan jazoni yengillashtirishdan oldin majburiy ravishda psixologik tuzatish dasturlaridan o'tish talabini joriy etish ko'zda tutildi. Bundan tashqari ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq hamda zo'ravonlik holatlarini samarali tergov qilish va sudda ko'rishni ta'minlash maqsadida kompleks institutsional chora-tadbirlar va uni amalga oshirish yo'l-yo'riqlari ham nazarda tutilmoqda. Shu maqsadda joriy yil yakuniga qadar har bir hududda, ish hajmidan kelib chiqqan holda, kamida bir nafar tergovchi va sudyani xalqaro standartlarga asoslangan dasturlar bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish, shuningdek, mazkur toifadagi ishlar bilan bevosita shug'ullanishini ta'minlash vazifasi belgilangan. Shuni ham aytish joizki, O'zbekistonda 2021-yilning birinchi yarmi davomida qariyb 18 ming nafar ayol tazyiqqa uchragani aniqlangan bo'lsa, ulardan 9 ming nafari ruhiy zo'ravonlik qurboni bo'lishgan. Ushbu ko'rsatkich 2020-yilning mos davriga nisbatan 2,5 baravar yoki 5 ming nafarga ko'p miqdorni tashkil etadi. Ko'rsatkichlar yildan-yilga tobora o'sib borayotganligi sababli, 2020-yildan boshlab ichki ishlar organlari tomonidan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar va bolalarga himoya orderini, shuningdek, tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga himoya orderining nusxasini berish tartibi belgilandi. Natijada, 2020-yil davomida respublika bo'yicha jami 14 774 nafar xotin-qizga himoya orderlari berilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich qariyb 40 000 taga yetgan. Bu raqamlarning oshishi zo'ravonlik ko'payganidan emas, balki ayollarning huquqiy ongi oshgani va himoya orderi tizimi samarali ishlay boshlaganidan dalolat beradi.

Konstitutsiyamizda belgilangan har bir fuqaro ta'lim olish huquqidan harkim to'liq foydalana olishini yanada takomillashtirish maqsadida "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi Prezident farmonida ta'limni tark etishga majbur bo'lgan ayollarning ish bozoriga kirish imkoniyati cheklanishini oldini olish maqsadida 2026-2027 o'quv yilidan boshlab homilador talaba-qizlar yoki 3 yoshgacha bo'lgan farzandini tarbiyalayotganga oliy ta'limni davom ettirishi uchun kursdan qolgan yoki talabalar safidan chiqarilgan shaxslarga fanlar farqini qayta o'zlashtirish sharti bilan ta'limni davom ettirish imkoni berilmoqda, ayollarga qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida homilador talabalarga akademik ta'til davrida masofaviy ta'lim shaklida o'qishni davom ettirish imkoniyati yaratilgan. 2027-yildan boshlab har ikkala taraf kamida 21 yoshga to'lganda birinchi marotaba nikoh tuzgan yosh oilalar uchun davlat tomonidan qo'shimcha imtiyoz va boshqa shakldagi qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilishi, ushbu oilalar Ijtimoiy reyestrda kiritilgan taqdirda, oilalar a'zolariga ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish, daromadlarini oshirish yoki murakkab vaziyatdan chiqarish uchun taqdim etiladigan moliyaviy ko'maklar (subsidiya, ssuda, grantlar) qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdorlardan 1,5 baravarga oshirilgan holda berilishi belgilandi. Umuman olganda, mazkur farmon ayollar, bolalar huquqiy himoyasi sohasida tariximizdagi keng ko'lamli va kompleks normativ hujjatlardan biri hisoblanib, O'zbekistonning ayollar va bolalarni himoya qilish sohasidagi huquqiy bazasini yangi bosqichga ko'taradi. Ayollar va bolalar daxlsizligi, ularning huquqlari va manfaatlarini davlat siyosatining markazida turishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik va bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish atamallari ko'pincha bir-birining o'rnida ishlatiladi. Shunga qaramay, ba'zi tadqiqotchilar bolalarga nisbatan

shafqatsiz munosabatda bo'lish atamasini beparvolik, ekspluatatsiya va odam savdosini o'z ichiga oluvchi soyabon atama sifatida ko'rishadi. Qanday ma'noda qo'llanilishiga qaramay bolalarga qilingan har qanday zo'ravonliklarni oqlab bo'lmaydi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonunida bolalarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari tazyiq va zo'ravonlikdan ishonchli himoya qilinishini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yo'llari belgilap berilgan. Ushbu qonunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ikki oy muddatda tazyiq va zo'ravonlik holatlarini aniqlash hamda individual chora-tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazarda tutuvchi ichki standart operatsion tartiblari belgilandi. Zo'ravonlikdan jabrlangan yoki o'ziga nisbatan zo'ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolalar bevosita o'zlari yoxud ularning qonuniy vakillari, shuningdek, ularning qarindoshlari yoki boshqa shaxslar zo'ravonlik holati to'g'risida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi, ichki ishlar organlari, shuningdek, boshqa mas'ul davlat organlari va tashkilotlariga murojaat qilishlari mumkin. "Inson" markazlari bolaga nisbatan zo'ravonlik sodir etilganligi fakti to'g'risidagi axborotni olgan paytdan e'tiboran ichki ishlar organlari ishtirokida zo'ravonlikdan jabrlangan bolaning, shuningdek, o'ziga nisbatan zo'ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolaning hayotiy vaziyatini bir kun muddatda o'rganadi. Bu orqali bolalarning erkinligini tamiynlash, o'z fikrlarini erkin bildirish va qo'rqmasdan ayta olishga imkon yaratiladi.

Xulosa

Ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish davlat tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ustuvor yo'nalishlardan biridir. Ushbu yo'nalishga qabul qilinayotgan normativ hujjatlar hamda joriy etilayotgan amaliy mexanizmlarda alohida e'tibor berilmoqda. Qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda gender tengligini qaror toptirish hamda jamiyatda adolat va xavfsizlik muhitini mustahkamlashga, huquqbuzarliklarning oldini olish, balki ayollar va bolalarning ta'lim olishi, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, zo'ravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish har bir fuqaroning muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023 <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 02.09.2019 <https://lex.uz/docs/-4494709>
3. «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni <https://lex.uz/docs/-4676892>
4. «Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 14.11.2024 <https://lex.uz/docs/-7219502>
5. «Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 03.03.2026 <https://president.uz/oz/lists/view/8982>